

## **SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI**

**Nurmamatova Fotima Farhod qizi**

Namangan davlat pedagogika institute Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna**

Boshlang'ich ta'lim innovatsiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsining shakllanishi, ularning rivojlanish qonuniyatlari va ijtimoiy muhitga moslashish jarayonlari yoritilgan. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillarning o'zaro aloqadorligi boshlang'ich ta'lim pedagogikasi nuqtai nazaridan yoritilgan. Shuningdek, maqolada o'quvchining "maktab o'quvchisi" sifatidagi yangi ijtimoiy maqomni egallashi va jamoada ijtimoiylashuvining pedagogik omillari haqida xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** individ, shaxs, rivojlanish, irsiyat, oila, ong, muhit, tarbiya, ijtimoiylashuv, kichik maktab yoshi, omil, yosh davrlar, pedagogik jarayon.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются формирование личности учащихся младшего школьного возраста, закономерности их развития и процессы адаптации к социальной среде. Взаимосвязь таких факторов, как наследственность, среда и воспитание, влияющих на развитие личности, освещается с точки зрения педагогики начального образования. Также в статье представлены выводы о принятии учеником нового социального статуса «школьника» и педагогических факторах социализации в коллективе.

**Ключевые слова:** индивид, личность, развитие, наследственность, семья, сознание, среда, воспитание, социализация, младший школьный возраст, фактор, возрастные периоды, педагогический процесс.

**Abstract:** This article examines the formation of the personality of primary school students, the patterns of their development, and the processes of adaptation to the social environment. The interrelationship of factors such as heredity, environment, and upbringing affecting personality development is highlighted from the perspective of primary education pedagogy. Furthermore, the article provides conclusions regarding the student's acquisition of a new social status as a "schoolchild" and the pedagogical factors of socialization within a group.

**Keywords:** individual, personality, development, heredity, family, consciousness, environment, upbringing, socialization, primary school age, factor, age periods, pedagogical process.

## **KIRISH**

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli isloxotlar zamirida faqat yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish maqsadi turibdi. v Xususan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy qiyofasini tizimli rivojlantirish va ularning ijtimoiy adaptatsiya jarayonlarini optimallashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu jarayonda ta’lim muassasalarining roli nafaqat bilim berish, balki shaxsning psixologik barqarorligini ta’minlash va jamoaviy munosabatlarda o‘zini namoyon etish qobiliyatini yuzaga chiqarishda ko‘rinadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda "ijtimoiy mas'uliyat" tuyg‘usining shakllanishi, ularning pedagogik muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi kelajakdagi professional va shaxsiy kamolotining poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

## **ASOSIY QISM**

Shaxs deganda, muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Odam (inson individi) shaxsga aylanmog'i uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatlari bilan farq qilishi lozim. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xususiyati, qiziqishi, qobiliyati, aqliy jihatdan rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji, mehnat faoliyatiga munosabati bilan boshqalardan farqlanadi. Bular shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, mazkur xususiyatlar rivojlanib, ma'lum bir bosqichga yetsagina, u kamol topgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida qaror topadi. Shaxsning rivojlanishi, avvalo, uning shaxsiy xislatlarining shakllanishidan boshlanadi<sup>1</sup>.

Shaxsning shakllanishida harakat o'ziga xos omil sanaladi. Go'dak (chaqaloq) ham turli harakatlarni bajaradi. Biroq, bu harakatlar keyinchalik reflekslar bo'lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz va shartli qo'zg'atuvchilarga javob tarzida yuz beradi. Bolada nutqiy ko'nikmalarning shakllanishi, ixtiyoriy harakatlar ustidan ongli nazoratning o'rnatilishi hamda ijtimoiy muhitga adaptatsiya jarayonining boshlanishi shaxs fenomenining ilk poydevori sifatida talqin etiladi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Aynan shu omillar zanjiri insoniy kamolotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanib, oddiy biologik mavjudotning komil shaxs darajasiga ko'tarilishini ta'minlaydi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbayi qarama-qarshiliklarning o'rtasidagi kurashdan iboratdir<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. J.Hasanboyev va boshqalar. O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. -Toshkent: «Noshir», 2011.456 b

<sup>2</sup> Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik/ M.X.Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S.

Nemis psixologi V.Shternning fikricha, chaqaloq (yangi tug‘ilgan bola) hali u odam emas, balki faqat sutemizuvchilarga daxldor hayvondir, u olti oylikdan oshgach, psixik taraqqiyoti jihatidan faqat maymunlar darajasiga tenglashadi, ikki>yoshida esa oddiy odam holiga keladi, bosh yoshlarda ibtidoiy poda holatidagi odamlar darajasiga yetadi, maktab davridan boshlab ibtidoiy davrni boshidan kechiradi, kichik maktab yoshida o‘rta asr kishilar ongiga va nihoyat yetuklik davrdagina (16 -18 yoshlarda) u hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga erishadi<sup>3</sup>. Shternning qarashlaridan farqli o‘laroq, bugungi kun ta’lim tizimi shuni isbotlamoqdaki, kichik maktab yoshidagi bola passiv tarzda tarixiy bosqichlarni takrorlovchi mavjudot emas, balki ijtimoiy munosabatlarning faol sub’ektidir. Uning "o‘quvchi" maqomini egallashi, unda ixtiyoriylik, mantiqiy tafakkur va ijtimoiy mas’uliyat kabi sof insoniy sifatlarning jadal shakllanishiga zamin yaratadi.<sup>3</sup>

K.Levin tomonidan tavsiya qilingan „fazoviy zarurat maydoni“ nazariyasi psixologiya fani uchun o‘z davrida muhim ahamiyat kasb etadi. K.Levinning nazariyasiga ko‘ra, shaxsning xulqi, xatti-harakati, psixologik kuch vazifasini o‘tovchi ishtiyoq maqsadlar bilan boshqarib turiladi va ular fazoviy zarurat maydonining ko‘lami va tayanch nuqtasiga yo'naltirilgan bo'ladi<sup>4</sup>. K. Levin nazariyasini zamonaviy pedagogik jarayonga tatbiq etsak, shaxsning shakllanishi — bu shunchaki yosh o‘sishi emas, balki uning hayotiy makoni tarkibining murakkablashib borishidir<sup>4</sup>

A.G.Kovalevning fikricha, shaxs — bu ijtimoiy munosabatlarning ham obyekt, ham subyektidir. A.N.Leontev ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday ta’rif beradi: shaxs — bu faoliyat subyektidir. K.K.Platonovning talqiniga qaraganda: jamiyatda o‘z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a’zosi shaxs deyiladi. Bu muammoning mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan S.L.Rubinshteyn ta’rificha, shaxs — bu

---

Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi. — Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - 400 b


<sup>3</sup> G‘oziyev E. G ‘ Psixologiya: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik/ E. G \ G ‘o z i y c v ; O ‘z K Oliy va o ‘ria maxsus ta ‘lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta ‘limi mar- kazi. - T.: , , O‘q ituvchi“ NMIU, 2008.-352 b

<sup>4</sup> G‘oziyev E. G ‘ Psixologiya: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik/ E. G \ G ‘o z i y c v ; O ‘z K Oliy va o ‘ria maxsus ta ‘lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta ‘limi mar- kazi. - T.: , , O‘q ituvchi“ NMIU, 2008.-352 b

tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi ichki shart- sharoitlar majmuyidir<sup>5</sup>. kichik maktab yoshidagi o'quvchi — bu shunchaki bilim oluvchi individ emas, balki jamiyatning faol, anglovchi va o'zgaruvchan a'zosisidir. Uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va to'g'ri yo'naltirish zamonaviy pedagogikaning eng ustuvor vazifasi bo'lib qolaveradi.<sup>5</sup>

**Shaxs** - kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi hisoblanadi. Demak, shaxs - ijtimoiy munosabatlar mahsuli bo'lib, ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyatda o'z o'rnini bor. Shaxsning rivojlanishi esa barcha tug'ma va hosil qilingan xususiyatlar: organizmning anatomik tuzilishi, faoliyat va xatti-harakatlarning miqdoriy va sifat o'zgarishi jarayonidir.

Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardir (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Shaxsga ta'sir etuvchi omillar.**

Irsiyat - bu ota qoni yoki ajdodlariga xos bo'lgan biologik xususiyat va o'xshashliklarning nasi (bola)ga o'tish jarayoni. Nasldan naslga o'tadigan xususiyatlarga quyidagilar kiradi: anatomik-fiziologik tuzilish (misol uchun yuz tuzilishi), organlar holati, qaddi-qomat, asab tuzilishi xususiyatlari, teri, soch hamda ko'zlarning rangi. Shuningdek, nutq, tafakkur, ixtiyoriy harakat va amallar, vertikal holatda yurish, mehnat, ijod qilish qobiliyati va boshqa iste'dod alomatlari ham nasldan naslga o'tadi. Iste'dod alomatlari umumiy xususiyat kasb etadi, muayyan mehnat va ijod turiga yo'naltirilgan emas. Iste'dod alomatlari muayyan faoliyatga moyilligini aks ettiradi, xolos. Ma'lum

<sup>5</sup> G'oziyev E. G. 'Psixologiya: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik/ E. G. \ G'oziyev; O'z K Oliy va o'rtacha maxsus ta'lim vazirligi, O'rtacha maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. - T.: , O'quvchi" NMIU, 2008.-352 b

oilada tarbiyalanayotgan bolada ajdodlariga xos iste'dod nishonasi aks etganda, aynan shu iste'dodning shakllanishida muhim rol o'ynagan, uning rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarga oila muhitini nazoratdan chetda qoldirmaslik lozim<sup>6</sup>.

**Muhit** — bu shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi voqea-hodisalar majmuyi. «Muhit» tushunchasi o'ziga geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit (oil) xususiyatlarini ifoda etadi.

Oila muhiti - mikromuhit ham o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu bois mustaqillikka erishilgandan so'ng, o'tgan davr mobaynida oila muhitining shaxs kamolotida tutgan o'rni va ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilmoqda. Shu maqsadda tashkil etilgan «Oila» ilmiy markazi oilaning bu boradagi imkoniyatlarini ochib berish borasida samarali faoliyat olib bormoqda.

Shaxs tarbiyasida muhim rol o'ynaydigan o'ziga xos mikroja-moalardan biri oiladir. Ishonch va qo'rquv, xotirjamlik va xavotirlanish, muloqotdagi samimiylik va kirishimlilik yoki aksincha, kirisha olmaslik va sovuqlik — bu xislatlarning barini shaxs oilada egallaydi. Bu xislatlar bola maktabga chiqquncha shakllanadi va bolaning rivojlanishiga uzoq vaqt ta'sir etadi. Xavotirlanuvchan onalarda xavotirlanuvchan bolalar shakllanadi<sup>7</sup>. Oila — bu shaxs shakllanishidagi birinchi 'ijtimoiy oyna'dir. Bola bu oyna orqali o'zini va atrofdagilarni ko'rishni o'rganadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining psixologik portretini tahlil qilishda uning oilaviy mikroiklimini o'rganish, undagi xavotir yoki ishonch manbalarini aniqlash samarali pedagogik jarayonni tashkil etishning muhim sharti hisoblanadi.

Tarbiya — arabcha so'zdan olingan bo'lib, parvarish qilmoq, ta'lim bermoq, o'rganish, odob o'rgatish, mehribonlik ko'rsatish, himoya qilish singari ma'nolarni anglatadi.

Tarbiya — hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra esa

---

<sup>6</sup> Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. J.Hasanboyev va boshqalar. O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. -Toshkent: «Noshir», 2011.456 b

yoʻzishni oʻrganishi bilan eng yuksak pogʻonaga koʻtarilsin deb aytadi va yana yaxshi ovqatlanadigan xalqdan yaxshi nasl - sogʻlom avlod qoladi” - deb taʼkidlaydi. Tarbiya ijtimoiy hodisa. Tarbiya kishilik jamiyatining paydo boʻlishi bilan vujudga keladi, taraqqiy etdi, jamiyatning oʻzgarishi bilan tarbiya ham oʻzgarib bordi. Tarbiya xulqni boshqarish va belgilash bir-birini talab etadigan va belgilaydigan tarkibiy qismlar — axloqiy ong axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning murakkab yigʻindisidir. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirishning pedagogik jarayoni boʻlib, tarbiyalanuvchilarning shaxsiga muntazam va tizimli taʼsir etish imkoniyatini beradi.<sup>8</sup>

Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy taʼsirlarning barchasi bilan bogʻliq holda, shaxs rivojlanishiga taʼsir etadi. Bunda qulay omillardan foydalaniladi, salbiy taʼsirlarning kuchini maʼlum darajada kamaytiradi. Muhitning taʼsiri stixiyali, tarbiyaning taʼsiri esa maqsadga muvofiq olib boriladi.

Tarbiya jarayonining shaxs shakllanishidagi fundamental funksiyalari quyidagilarda namoyon boʻladi.

Birinchi, tarbiya kognitiv rivojlanishning asosi boʻlib xizmat qiladi. Inson tabiiy muhitda ayrim koʻnikmalarni (masalan, soʻzlashuvni) stixiyali oʻzlashtirsa-da, tizimli bilimlar, oʻqish-yozish kabi murakkab intellektual malakalar faqat maqsadli tarbiyaviy algoritmlar orqali shakllanadi.


Ikkinchi, u korreksion va kompensator imkoniyatga ega. Tarbiya orqali insonning tugʻma jismoniy yoki sensor nuqsonlarini (koʻrish, eshitish, nutq va b.) pedagogik usullar bilan muvofiqlashtirish, ularning intellektual salohiyatini roʻyobga chiqarish va jamiyatga toʻlaqonli integratsiya qilish mumkin.

Uchinchi, tarbiya ijtimoiy rehabilitatsiya funksiyasini bajaradi. U nosogʻlom muhit taʼsirida shakllangan zararli odatlar va deviant xulq-atvor shakllarini bartaraf etib, shaxsning ijtimoiy yoʻnalishini ijobiy tomonga oʻzgartirish qudratiga ega.

Nihoyat, tarbiya strategik-prognostik xarakterga ega boʻlib, shaxs kamolotining istiqboldagi modelini belgilaydi. Bu jarayon shaxs rivojlanishida shunchaki kuzatuvchi

emas, balki taraqqiyotni harakatlantiruvchi va yo‘naltiruvchi determinant (hal qiluvchi) kuch hisoblanadi.

Shaxsning shakllanishida unga berilayotgan ta‘lim-tarbiyaning mazmuni, metodlari va vositalari bolaning yosh xususiyatlariga muvofiq kelishi muhim sanaladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning ruhiy xususiyatlarini bilishi, ma‘lum yoshdagi o‘quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur layoqatlarini inobatga olishi asosida faoliyat tashkil etishi lozim. Shaxsning aqliy va jismoniy kamolotida doimo ilgariga qarab rivojlanish ro‘y beradi. Bolaning jismoniy va ruhiy kamoloti qaror topib borar ekan, bir qancha bosqichlarni bosib o‘tadi<sup>9</sup>. Shaxs shakllanishida ta‘lim mazmuni va metodlarining yosh xususiyatlariga muvofiqligi — bu shunchaki pedagogik talab emas, balki rivojlanishning biologik va psixologik qonuniyatlaridan kelib chiqadigan zaruriyatdir.



**2-rasm. Yosh davrlari**

Shaxs ijtimoiv munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki ta‘lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog‘liq bo‘lmagan holat va hodisalar o‘rgatiladi. Bu jarayonda o‘quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Ular ma‘lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko‘rsatma) orttiradilar, ya‘ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me‘yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o‘rganib mazkur jamiyatdayashash, uning a‘zosi bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta‘sir etadi. Bu ta‘sir

ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi. Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar. Ijtimoiylashuv jaravoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud<sup>10</sup>.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi masalalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu davr inson kamolotining eng asosiy bosqichi hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bola shaxsining shakllanishi faqatgina biologik o'sish bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy muhit va maqsadli yo'naltirilgan tarbiya jarayonining o'zaro uyg'unligida kechadi. Ayniqsa, bolaning oila bag'ridan chiqib, ilk bor rasmiy ijtimoiy jamoa — maktab muhitiga qadam qo'yishi uning dunyoqarashi va xulq-atvorida tub burilish yasaydi.

Bu bosqichda ijtimoiylashuv jarayoni o'quvchining yangi ijtimoiy maqomni, ya'ni "maktab o'quvchisi" mas'uliyatini anglashida namoyon bo'ladi. Ta'limiy jihatdan qaraganda, tarbiya bu jarayonda yetakchi kuch bo'lib xizmat qiladi va o'quvchining shaxsiy sifatlarini jamiyat talablariga mos ravishda shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsiy namunasi, boladagi iqtidorlarni va muloqot ko'nikmalarini o'z vaqtida aniqlab, qo'llab-quvvatlashi muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvning asosiy garovidir.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun faqatgina nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmaslik lozim. Ta'lim jarayonida bolaning ijtimoiy moslashuvi, mustaqil fikrlashi, muloqot ko'nikmalari hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa sog'lom psixologik muhit

yaratish, o'quvchining qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish, uni faol ishtirokchi sifatida qo'llab-quvvatlash zarur.

Shuningdek, boshlang'ich ta'lim bosqichida maktab va oilaning o'zaro uzviy hamkorligi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi samarali hamkorlik bolaga nisbatan yagona yondashuvni shakllantiradi, uning tarbiyasi va rivojlanishida uzluksizlikni ta'minlaydi. Aynan mana shunday tizimli yondashuv orqali kichik maktab yoshidagi bolani nafaqat bilimli, balki ijtimoiy faol, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida shakllantirishga erishish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilartayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik/ M.X.Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S. Madiyarova,A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - 400 b
2. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. J.Hasanboyev va boshqalar. O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. -Toshkent: «Noshir», 2011.456 b
3. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 600 b.
4. G'oziyev E. G ' Psixologiya: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik/ E. G \ G 'o z i y c v ; O 'z K Oliy va o 'ria maxsus ta 'lim vazirligi, O' 'rta maxsus, kasb-hunar ta 'limi mar- kazi. - T.: , , O'q ituvchi“ NMIU, 2008.-352 b.
5. Umumiy pedagogika . - T .: « Fan va texnologiya» , 2018 , 528 bet.
6. <http://journalss.org/index.php/ks/article/download/20314/19559>.



7. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-quvchilarida-jamoaviy-ishlash-konikmasini-shakllantirish-orqali-tarbiyalash-yo-llari>
8. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Z3KCkAIAAAAJ&citation\\_for\\_view=Z3KCkAIAAAAJ:UeHWp8X0CEIC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Z3KCkAIAAAAJ&citation_for_view=Z3KCkAIAAAAJ:UeHWp8X0CEIC)
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-quvchilari-uchun-axloqiy-tarbiyaning-mazmuni-va-mohiyati>.